Tadqiqot metodologiyasi sifatida qiyosiy tahlil, statistik tahlil, kontent-tahlil va case study usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning ma'lumotlar bazasini quyidagi manbalar tashkil etdi: Jahon banki Global Findex ma'lumotlar bazasi (2025), McKinsey Global Digital Banking tadqiqotlari (2024–2025), Deloitte Digital Banking



Survey (2024–2025), O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik ma'lumotlari (2024), Cornerstone Advisors va Alkami Digital Banking Performance Metrics hisobotlari (2024), Statista global statistik ma'lumotlar bazasi, J.D. Power Banking Digital Experience Study (2024), Gartner AI in Banking Reports, shuningdek xalqaro moliya institutlari va konsalting kompaniyalarining analitik hisobotlari.

Tahlil davomida quyidagi asosiy ko'rsatkichlar o'rganildi: raqamli bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni va dinamikasi, raqamli to'lovlar hajmi va ulushi, sun'iy intellekt investitsiyalari va ularning samaradorligi, mobil banking va internet-banking penetratsiyasi mintaqalar bo'yicha, chatbot texnologiyalarining mijozlar xizmatiga ta'siri, bank operatsion samaradorligi ko'rsatkichlari (xarajatlar, vaqt, xatoliklar), mijozlar qoniqishi ko'rsatkichlari (NPS, CSAT), raqamli mijozlar va an'anaviy mijozlar o'rtasidagi daromadlilik farqi. Tadqiqot doirasida 2018–2024-yillar oralig'idagi dinamik o'zgarishlar kuzatildi va 2029-yilgacha bo'lgan prognozlar tahlil qilindi.

Qiyosiy tahlil usuli orqali turli mintaqalar (Shimoliy Amerika, Yevropa, Osiyo–Tinch okeani, Afrika, Markaziy Osiyo) bo'yicha raqamli bank xizmatlarining rivojlanish darajasi solishtirildi. Case study usuli orqali yetakchi banklar (Bank of America, NatWest, Capital One, DBS Bank, Klarna) tajribasi o'rganildi. Statistik tahlil usuli orqali raqamli marketing vositalarining bank samaradorligiga ta'siri miqdoriy baholandi. Kontent-tahlil usuli orqali xalqaro tadqiqot hisobotlari va ilmiy maqolalar sistematik tahlil qilindi.

Tadqiqotda Deloitte tomonidan 2025-yilning yanvar oyida AQSh banklari mijozlari orasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari (2027 respondent) alohida o'rganildi. Shuningdek, McKinsey Finalta ma'lumotlar bazasi orqali 2018–2022-yillar oralig'ida 20 ta raqamli yetakchi va 20 ta raqamli orqada qoluvchi bank faoliyatining qiyosiy tahlili amalga oshirildi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma'lumotlari, jumladan masofadan bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni, bank kartalari orqali to'lovlar hajmi, mobil ilovalar orqali amalga oshirilgan operatsiyalar ulushi tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalar bank faoliyatining barcha sohalaridagi o'zgarishlarga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Global mobil banking foydalanuvchilari soni 2025-yil oxiriga kelib 2,17 milliardga yetgan bo'lib, bu 2020-yildan buyon 35 foizga o'sgan [16]. AQShda mobil bankingni qabul qilish darajasi 2025-yilda 72 foizga yetgan bo'lib, bu 2022-yildagi 65 foiz va 2019-yildagi 52 foizdan sezilarli darajada yuqori [19]. Xitoy 860 milliondan ortiq mobil banking foydalanuvchilari bilan dunyoda eng katta milliy bazaga ega [20]. Global miqyosda aholining 66 foizi mobil bankingdan foydalanmoqda, eng kuchli o'sish esa Hindiston, Nigeriya va Bangladeshda kuzatilmoqda.

Mintaqaviy tahlil shuni ko'rsatadiki, Yevropa 76 foizlik mobil banking qo'llanilishi bilan yetakchilik qilmoqda, Skandinaviya mamlakatlari esa 87 foizdan ortiq qabul qilish darajasiga ega [21]. Finlyandiya (95 foiz) va Norvegiya (91 foiz) dunyo bo'yicha onlayn va mobil banking foydalanuvchilari ulushi bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallaydi [22]. Janubiy Koreya (81 foiz) va Nigeriya (80 foiz) mobil banking foydalanuvchilari ulushi bo'yicha global yetakchilar qatoriga kiradi [23]. Shimoliy Amerika 2024-yilda global mobil banking bozoriga taxminan 56,7 foiz hissa qo'shishi kutilmoqda [23]. Osiyo–Tinch okeani mintaqasida tranzaksiya hajmi 2025-yilda 34 foizga o'sgan bo'lib, bu elektron tijorat, QR-to'lovlar va real vaqt kliring tizimlarining rivojlanishi bilan bog'liq (1-jadval).

1-jadval. Mobil banking penetratsiyasi mintaqalar bo'yicha¹ (2024-2025)

Mintaqa/Mamlakat	Penetratsiya darajasi	O'sish sur'ati	Foydalanuvchilar soni
Finlyandiya	95%	3,2%	4,7 mln
Norvegiya	91%	2,8%	4,5 mln
Turkiya	85%	12,4%	58 mln
Nigeriya	82%	18,5%	95 mln
Janubiy Koreya	81%	5,1%	42 mln
Xitoy	78%	8,2%	860+ mln
Yevropa (o'rtacha)	76%	6,5%	380+ mln
AQSh	72%	7,8%	161,6 mln
Hindiston	68%	23,1%	295,5 mln

1 Muallif ishlanmasi



Sun'iy intellekt va chatbot texnologiyalarining bank xizmatlariga integratsiyasi bo'yicha tadqiqot natijalari alohida ahamiyatga ega. 2025-yilda chakana banklarning 98 foizi mijozlarga xizmat ko'rsatish yoki yangi mijozlarni qabul qilish jarayonlarida chatbotlardan faol foydalanmoqda [25]. Chatbot orqali amalga oshirilgan muloqotning o'rtacha qiymati 2025-yilda 0,11 AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, jonli agent yordamining 6 dollariga nisbatan 55 barobar arzon [25]. Banklar chatbot integratsiyasidan so'ng so'rovlar navbatining 41 foizga kamayganini qayd etgan [25]. Chatbot muloqotlarining 74 foizi birinchi murojaat paytidayoq yechimga erishmoqda [25].

Yetakchi banklarning sun'iy intellekt qo'llanilishi bo'yicha case study tahlili quyidagi natijalarni ko'rsatdi. Bank of America ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda mijozlar 26 milliard raqamli muloqotni amalga oshirgan bo'lib, bu oldingi yilga nisbatan 12 foizga ko'p. Ulardan 676 million muloqot "Erica" sun'iy intellekt yordamchisi orqali amalga oshirilgan [29]. Capital One bankining "Eno" yordamchisi aloqa markazi muloqotlarini 50 foizga qisqartirgan [30]. Buyuk Britaniyada NatWest bankining "Cora" sun'iy intellekt yordamchisi 2024-yilda 11,2 million mijoz muloqotini amalga oshirgan bo'lib, bu bankning barcha aloqa markazlari va filiallari tomonidan bajarilgan muloqotlar hajmiga teng [31].

Shved fintech kompaniyasi Klarna 2024-yil boshida generativ AI yordamchisini joriy etgan bo'lib, u birinchi oyda 2,3 million suhbat o'tkazgan va mijozlar qoniqishini inson agentlari darajasida saqlagan. Masalalarni hal qilish vaqti 11 daqiqadan 2 daqiqadan kamga tushgan, takroriy so'rovlar 25 foizga kamaygan [32]. Braziliyaning Bradesco banki sun'iy intellekt qo'llanilishi orqali xodimlar imkoniyatini 17 foizga oshirgan va jarayonlar vaqtini 22 foizga qisqartirgan [9]. Gartner prognoziga ko'ra, 2025-yilga kelib chatbot texnologiyasidan foydalanadigan mijozlarga xizmat ko'rsatish tashkilotlari operatsion xarajatlarni 30 foizga qisqartiradi (2-jadval) [34].

2-jadval. Sun'iy intellekt va chatbot texnologiyalarining bank xizmatlariga ta'siri² (2024-2025)

Ko'rsatkich	Qiymat	Manba
Chatbot qo'llaydigan chakana banklar ulushi	98%	CoinLaw, 2025
Chatbot muloqot qiymati (agent - \$6)	\$0,11	CoinLaw, 2025
Mijozlar xizmati samaradorligi o'sishi	32%	CoinLaw, 2025
So'rovlar hal qilish vaqti qisqarishi	38%	CoinLaw, 2025
Birinchi murojaat yechimi darajasi	74%	CoinLaw, 2025
So'rovlar navbati qisqarishi	41%	CoinLaw, 2025
NPS yaxshilangan banklar ulushi	92%	CoinLaw, 2025
AI chatbot bozor hajmi (2024)	\$8,6 mlrd	CoinLaw, 2025
AI chatbot bozor hajmi prognozi (2029)	\$31,11 mlrd	CoinLaw, 2025
Chatbotlar orqali tejash (2025-2028)	\$11 mlrd	CoinLaw, 2025

Raqamli marketing investitsiyalari va ularning samaradorligi bo'yicha tahlil natijalari quyidagicha. 2024-yilda Amerika Qo'shma Shtatlari bank sektori raqamli reklamaga 16,59 milliard AQSh dollari sarflagan bo'lib, bu 2021-yildagi 11,25 milliard dollardan 47 foizga yuqori [35]. Deloitte Digital tadqiqotiga ko'ra, rivojlangan ijtimoiy media strategiyasiga ega bo'lgan brendlar o'rtacha yillik 10,2 foiz daromad o'sishini qayd etgan [36]. Har bir 1 milliard dollar aktivga to'g'ri keladigan o'rtacha raqamli xarajatlar 2022-yildagi 200 ming dollardan 2024-yilda 780 ming dollarga yetgan bo'lib, bu 310 foizlik o'sishni tashkil etadi [37].

McKinsey Finalta ma'lumotlar bazasi tahlili 2018–2022-yillar oralig'ida 20 ta raqamli yetakchi va 20 ta raqamli orqada qoluvchi bank faoliyatini solishtirgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, raqamli yetakchilar o'z kapitaliga rentabellik, P/E nisbati va umumiy aksiyadorlar daromadini raqamli orqada qoluvchilarga qaraganda sezilarli darajada yaxshilagan [9]. Bir yetakchi Osiyo banki tajribasi shuni ko'rsatdiki, raqamli mijozlar odatiy mijozlarga nisbatan ikki baravar ko'proq daromad keltirib, samaradorlik koeffitsiyenti 20 foiz bandga past va ROE 9 foiz bandga yuqori bo'lgan. Transformatsiya boshlanganidan buyon raqamli mijozlar ulushi 60 foizga ikki baravar oshgan, filial va aloqa markazi xarajatlari 25 foizga kamaygan, iste'molchi banki samaradorlik koeffitsiyenti 49 foizdan 40 foizga tushgan (3-jadval) [9].

2 Muallif ishlanmasi

3-jadval. Raqamli texnologiyalarning tijorat banklari faoliyatiga ta'siri³

T/R	Faoliyat sohasi	Qo'llaniladigan texnologiyalar	Kutiladigan natija
1	Xarajatlarni kamaytirish	O'z o'ziga xizmat ko'rsatish, sun'iy intellekt, chatbotlar	Operatsion xarajatlarning 25-40% qisqarishi, agent xarajatlarning 55 barobar kamayishi
2	Xizmat ko'rsatish tezligi	Mobil ilovalar, internet banking, real vaqt tizimlari	24/7 rejimda xizmat, so'rovlar hal qilish vaqtining 38% qisqarishi
3	Mijozlar bilan muloqot	AI chatbotlar, CRM tizimlari, shaxsiylashtirilgan xabarnomalar	NPS yaxshilanishi (92% banklarda), mijozlar ishonchining 17% ortishi
4	Firibgarlikni aniqlash	Generativ AI, graf tahlil, real vaqt monitoring	Firibgarlik aniqlash darajasining 2 barobar oshishi (Mastercard)
5	Marketing va tahlil	Big data tahlillari, maqsadli reklama, AI-analytics	Daromadning 10,2% yillik o'sishi, AI qo'llagan banklarda 34% daromad o'sishi
6	Raqamli mijozlar ulushi	Raqamli transformatsiya, mobil platformalar	Raqamli mijozlar ulushining 60% gacha oshishi, ikki baravar yuqori daromadlilik
7	Bulutli texnologiyalar	Cloud computing, SaaS platformalari	3 yil ichida ilovalarning 70% gacha bulutga o'tishi (hozir 30-40%)
8	Shaxsiylashtirish	AI algoritmlar, prediktiv tahlil, mijoz segmentatsiyasi	71% mijozlar shaxsiylashtirilgan tajriba kutadi, 78% shaxsiylashtiruvchi kompaniya bilan ishlashni afzal ko'radi

O'zbekiston bank sektorida raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha tadqiqot natijalari quyidagicha. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, tijorat banklarining 23,9 milliondan ortiq mijozlari masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanadi. Ulardan 22,4 million nafari (yoki 94 foizi) jismoniy shaxslar, 1 301 mingtasi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar sanaladi [40]. O'zbekistonda masofadan xizmat ko'rsatish tizimlaridan foydalanuvchilar soni 2018–2024-yillar oralig'ida barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan.

2024-yilda bank kartalariga masofaviy o'tkazmalar (P2P) orqali tushgan tushumlar 1,4 barobarga, bank xizmatlari bo'yicha tushumlar 1,3 barobarga, aholining boshqa daromadlari bo'yicha tushumlar 1,2 barobarga oshgan [41]. Natijada bank kartalariga kirim qilingan mablag'lar tarkibida ish haqi to'lovlari ulushi 10,1 foiz bandga, ijtimoiy to'lovlar ulushi 1,1 foiz bandga qisqargan bo'lsa, masofaviy o'tkazmalar (P2P) ulushi 6,3 foiz bandga, bank xizmatlari uchun mablag'lar ulushi 4,1 foiz bandga oshgan [42]. Bank kartalari orqali amalga oshirilgan to'lovlar hajmi 1,5 barobarga oshib, uning tarkibida naqdlashtirish hajmining ulushi 34,7 foizdan 32 foizga kamaygan.

Hozirda banklar tomonidan ajratiladigan mikroqarzlarining 53 foizi, jalb qilinayotgan omonatlarning 68 foizi, aholiga sotilayotgan xorijiy valyutaning 14 foizi va kommunal to'lovlarning 54 foizi aynan mobil ilovalar orqali amalga oshirilmoqda. Interfeysining jozibadorligi natijasida Uzum bank, Agrobank hamda Ipak yo'li banklari mamlakatimiz bank sektorida yetakchilik qilmoqda va mijozlar ishonchini qozonmoqda. Davlat banklarining umumiy bank sektoridagi ulushi uchdan ikki qismdan ortiq bo'lishiga qaramasdan, banklar faoliyatida raqamli yechimlar qo'llanilganda 2029-yilga kelib daromadlar o'sishi o'rtacha yillik 11 foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli marketing vositalari bank xizmatlari samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Biroq bu jarayon bir qator qiyinchiliklar bilan ham bog'liq. Deloitte 2025-yil so'rovnomasiga ko'ra, respondentlarning 37 foizi bank chatbotlari bilan hech qachon muloqot qilmaganini aytgan, bu esa chatbotlar haqida xabardorlik va ulardan foydalanishni oshirish uchun hali ham salohiyat mavjudligini ko'rsatadi [45]. Oddiy vazifalar uchun ijobiy tajribalar rag'batlantiruvchi bo'lsa-da, respondentlarning 74 foizi oddiy, kundalik so'rovlar uchun chatbotlar o'rniga inson mijozlarga xizmat ko'rsatish vakillari bilan muloqot qilishni afzal ko'rgan. Bu natijalar chatbot texnologiyalarini takomillashtirish va inson omilini saqlash zarurligini ko'rsatadi.

McKinsey tadqiqotiga ko'ra, iste'molchilarning 71 foizi banklardan shaxsiylashtirilgan tajriba kutadi va 76 foizi shaxsiylashtirish yetishmaganida xafa bo'ladi [9]. Bu ma'lumotlar shaxsiylashtirilgan raqamli marketing

3 Muallif ishlanmasi



strategiyalarining muhimligini ta'kidlaydi. IBM tadqiqotiga ko'ra, mijozlarning 78 foizi shaxsiylashtirilgan tajriba taklif etuvchi kompaniya bilan ishlash ehtimoli yuqori. Shu bilan birga, Hootsuite'ning 2024-yilgi hisobotiga ko'ra, marketologlarning 68 foizi ijtimoiy media faoliyatidan ROI ni isbotlash haqida tashvishlanadi. Bu bank sektorida raqamli marketing samaradorligini o'lchash metodologiyasini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Raqamli texnologiyalar ikki tomonlama ta'sir ko'rsatmoqda. Bir tomondan, innovatsiyalar banklar uchun raqobatbardoshlikni ta'minlamoqda. Boshqa tomondan, ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish muhim ahamiyatga ega infratuzilma, inson kapitali va tartibga solish amaliyotlarida namoyon bo'lmoqda [9]. McKinsey ma'lumotlariga ko'ra, neobank va fintech kompaniyalari an'anaviy banklarga qaraganda yangi mahsulotlarni bozorga chiqarishda ikki baravar tezroq ishlashi aniqlangan [9]. Bu an'anaviy banklar uchun raqamli transformatsiyani tezlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Osiyo–Tinch okeani mintaqasida (APAC) moliya foydalanuvchilarining 70 foizi raqamli ilovalarni bank xizmatlari uchun asosiy usul sifatida tanlaydi. Sub-Sahara Afrikasi mobil pul hisobvaraqlarini qabul qilishda dunyoda yetakchilik qilmoqda: 2024-yilda kattalarning 40 foizi mobil pul hisobvarag'iga ega bo'lib, bu 2021-yildagi 27 foizdan sezilarli yuqori. Boshqa mintaqalar ham yetib kelmoqda, masalan, Lotin Amerikasi va Karib havzasida kattalarning 37 foizi mobil pul hisobvarag'iga ega bo'lib, bu 2021-yildagi 22 foizdan yuqori. Bu tendensiyalar raqamli bank xizmatlarining global miqyosda keng qabul qilinayotganligini ko'rsatadi.

Kiberxavfsizlik masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Sophos News ma'lumotlariga ko'ra, moliya sektorida ransomware hujumlari 2023-yilda 55 foizdan 64 foizga oshgan. Bank rahbarlarining 83 foizi Alning raqamli bankingga integratsiyasi banklarni kibertahdidlarga nisbatan zaifroq qilishiga ishonadi. Bu holat banklarda kiberxavfsizlik tizimlarini takomillashtirish, fintech kompaniyalari xizmatlariga xarajatlarning ortishi, shuningdek mijozlar va xodimlarning bu boradagi savodxonligini oshirishni talab etadi. Global kiberjinoyatchilik 2024-yilda 9 trillion dollardan ortiq zarar yetkazishi kutilmoqda, bu esa dunyodagi eng katta iqtisodiy tahdidlardan biri hisoblanadi.

Tijorat banklari va ularning mijozlari o'rtasida sherikchilik munosabatlarini faollashtirish lozim. Buning uchun tijorat banki har bir mijoz to'g'risida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lishi va monitoring o'rnatishi zarur. Yangi yuqori texnologiyali bank mahsulotlarini ishlab chiqish va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini, operativ samaradorlikni va boshqaruv tizimini takomillashtirish maqsadida bankning mavjud biznes-jarayonlarini avtomatlashtirish ham ustuvor vazifalar qatorida turishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, bank xizmatlari samaradorligini oshirishda raqamli marketingdan foydalanish zamonaviy bank faoliyatining ajralmas qismiga aylangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirgan banklar raqobatbardoshlikni oshirish, operatsion xarajatlarni 25–40 foizga kamaytirish va mijozlar qoniqishini sezilarli darajada yaxshilash imkoniyatiga ega bo'ladi. Global mobil banking foydalanuvchilari soni 2,17 milliardga yetgan bo'lib, chakana banklarning 98 foizi chatbot texnologiyalaridan faol foydalanmoqda.

Sun'iy intellekt va chatbot texnologiyalari bank xizmatlarini tubdan o'zgartirmoqda. Yetakchi banklar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AI yordamchilari aloqa markazi muloqotlarini 50 foizga qisqartirishi, masalalarni hal qilish vaqtini 11 daqiqadan 2 daqiqagacha tushirishi va mijozlar qoniqishini saqlagan holda operatsion samaradorlikni sezilarli darajada oshirishi mumkin. Chatbotlar orqali 2025–2028-yillarda banklar 11 milliard dollar tejashi prognoz qilinmoqda. AI chatbot bozori 2024-yildagi 8,6 milliard dollardan 2029-yilga kelib 31,11 milliard dollarga yetishi kutilmoqda.

O'zbekiston bank sektorida raqamli marketing vositalaridan foydalanishni kengaytirish, sun'iy intellekt va big data texnologiyalarini joriy etish, shuningdek, malakali kadrlarni tayyorlash istiqbolli yo'nalishlar sifatida e'tirof etiladi. Mamlakatimizda 23,9 milliondan ortiq mijoz masofadan bank xizmatlaridan foydalanmoqda, mikroqarzlarning 53 foizi va omonatlarning 68 foizi mobil ilovalar orqali amalga oshirilmoqda. Biroq davlat ulushining yuqoriligi, infratuzilmaning yetishmasligi va malakali kadrlar tanqisligi kabi muammolarni hal qilish zarur.

Tadqiqot asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi: birinchidan, tijorat banklari raqamli marketing strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishga alohida e'tibor qaratishlari lozim; ikkinchidan, sun'iy intellekt va chatbot texnologiyalarini mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonlariga integratsiya qilish zarur; uchinchidan, kiberxavfsizlik tizimlarini mustahkamlash va xodimlar malakasini oshirish talab etiladi; to'rtinchidan, shaxsiylashtirilgan marketing yondashuvlarini joriy etish orqali mijozlar qoniqishini oshirish maqsadga muvofiq; beshinchidan, raqamli marketing samaradorligini o'lchash metodologiyasini takomillashtirish zarur. Bankning ijobiy imidjini yaratish va jamoatchilik bilan aloqalarni rivojlantirish, shuningdek, bankning umumiy strategik maqsadlariga muvofiq marketing strategiyasini amalga oshirish uchun zamonaviy marketing va PR usullaridan faol foydalanish choralari ko'rish maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. To'rayev A.Sh. Directions for improving service efficiency in banks through digital technologies // Eurasian Scientific Herald. – 2025. – Volume 46. – ISSN: 2795-7365.
2. World Bank. The Global Findex Database 2025: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience. – Washington, DC: World Bank Group, 2025.
3. World Bank. Digital technology is unlocking financial inclusion // Development Talk. – 2025. – URL: <https://blogs.worldbank.org/>
4. World Bank. Global Findex 2025: Digital merchant payments statistics. – 2025.
5. Global Market Insight. Digital Banking Market Size Report 2024-2032. – 2024.
6. G2. 60+ Digital Banking Statistics to Watch in 2025 // G2 Learn Hub. – 2025.
7. Statista. Global mobile payment transactions forecast 2025. – 2024.
8. Statista. Digital wallet transactions worldwide 2024-2029. – 2024.
9. McKinsey & Company. A live take from McKinsey's 21st Global Digital Banking Conference. – June 11, 2024.
10. G2. AI-driven banking market growth projections 2021-2026. – 2025.
11. IDC. Worldwide AI Spending Guide: Banking sector analysis. – 2024.
12. UXDA. AI Gold Rush: 21 Digital Banking AI Case Studies. – August 5, 2025.
13. To'rayev A.Sh. Bank xizmatlari marketingini takomillashtirish yo'llari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: TDIU, 2025.
14. ABA Banking Journal. What do bank marketers have in store for 2024? – February 9, 2024.
15. SQ Magazine. Mobile Banking Statistics 2025: Explosive Growth Uncovered. – September 9, 2025.
16. SQ Magazine. US mobile banking adoption rates 2019-2025. – 2025.
17. Statista. Share of online/mobile banking users in 56 countries worldwide. – February 21, 2024.
18. Statista. Share of mobile banking users in 56 countries worldwide. – February 21, 2024.
19. G2. North America mobile banking market share 2024. – 2025.
20. CoinLaw. Banking Chatbot Adoption Statistics 2025: Usage, Efficiency. – July 17, 2025.
21. UXDA. Bank of America Erica digital interactions 2024. – 2025.
22. Gartner. Customer service organizations chatbot cost reduction forecast. – 2024.
23. Statista. Banking digital ad spending in the United States 2019-2024. – 2024.
24. Deloitte Digital. 2024 Social Media Trends Survey. – 2024.
25. Cornerstone Advisors, Alkami. The 2024 Digital Banking Performance Metrics Report. – May 2024.
26. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Masofadan bank xizmatlari to'g'risida ma'lumot. – 2024.
27. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. To'lov tizimlari statistikasi. – 2024.
28. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank kartalari statistikasi. – 2024.
29. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Banklar o'rtasidagi hisob-kitoblar. – 2024.
30. KORTX. 2024 Bank Marketing Trends: Fintechs, GenAI & More. – January 8, 2025.
31. Deloitte. From frustration to delight: AI-powered banking chatbots survey. – July 17, 2025.
32. Deloitte. Customer preferences for human vs chatbot interactions. – 2025.
33. IBM. Customer experience personalization study. – 2024.
34. Hootsuite. 2024 Social Media Trends Report. – 2024.
35. Satuvision. Digital Marketing in Banking Sector Trends 2024. – January 2, 2024.
36. World Bank. Sub-Saharan Africa mobile money account ownership. – 2025.
37. Sophos News. Ransomware attacks in financial sector 2023. – 2024.
38. NimbleAppGenie. Mobile Banking Statistics 2025. – October 13, 2025.
39. SQ Magazine. Global cybercrime damages forecast 2024. – 2025.
40. Iqtisodiyot jurnali. O'zbekiston bank sektori infratuzilmasi tahlili. – TDIU, 2024.
41. World Bank. Financial Inclusion Overview: Credit access statistics. – 2024.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>